

Bozorova Marjona O‘tkirovna

X. Sulaymonova nomidagi RSEMning

Navoiy viloyati bo‘limi ish yurituvchisi

Tel: +998997394174

e-mail: marjonabozorova1234@gmail.com

Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Jamiyat taraqqiy etgani sari turli nizolar, huquqbuzarliklar va murakkab huquqiy masalalar ham ko‘payib bormoqda. Bunday holatlarda haqiqatni aniqlash, dalillarni to‘g‘ri baholash hamda adolatli qaror qabul qilishda sud ekspertizasining o‘rni beqiyosdir.

Sud ekspertizasi — bu sud, tergov organlari yoki boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan qo‘yilgan savollarga maxsus ilmiy bilimlar asosida javob berish, dalillarni tekshirish va xulosa taqdim etishdan iborat faoliyat turidir. Ekspertiza jarayonida zamonaviy texnik vositalar, laboratoriya uskunalari hamda ilmiy metodlardan keng foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda sud ekspertizasi bir qator yo‘nalishlarni qamrab oladi. Jumladan:

- sud-qurilish ekspertizasi;
- sud-kimyoviy ekspertizasi;
- sud-avtotexnik ekspertizasi;
- kriminalistik va texnik ekspertizalar;
- hujjatlar va imzolar ekspertizasi;
- axborot texnologiyalari sohasidagi ekspertizalar.

Mazkur yo‘nalishlar jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma‘muriy ishlar bo‘yicha muhim dalillarni aniqlashda xizmat qiladi. Ekspert xulosasi ko‘pincha ish bo‘yicha yakuniy qaror chiqarishda asosiy dalillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda sud ekspertizasi tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Respublika sud ekspertiza muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanib, laboratoriya imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Ushbu muassasalarda yuqori malakali mutaxassislar faoliyat yuritib, ekspertiza sifati va xolisligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Sud ekspertining faoliyati yuqori mas‘uliyat, xolislik va halollikni talab etadi. Ekspert ish materiallarini chuqur o‘rganib, ilmiy asoslangan, aniq va asosli xulosa berishi lozim. Bu esa sud jarayonida adolatli qaror qabul qilinishiga yordam beradi.

Prezidentimizning 2025-yil 8-sentyabrdagi PQ-270-sonli qarorida sud ekspertiza tizimini rivojlantirish to‘g‘risidagi chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu qarorda "E-ekspertiza" axborot tizimini joriy etish ham nazarda tutilgan. Mazkur tizim ekspertiza ishlarini tayinlovchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan to‘liq elektron hujjat almashinuvini ta‘minlaydi. Bu esa sud ekspertizasi sohasida ish yuritish tizimini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud ekspertizasi – adolat poydevori! Yurtimizda ushbu sohaning keng rivojlanishiga yaratilayotgan imkoniyatlar mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib